




O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI



Imom Buxoriy

(810-870)



“Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz-avliyolarimizning bebaho merosi, yengilmas sarkarda va arboblarning jasoratini yoshlar ongiga singdirish, ularda milliy gʻurur va iftixor tuygʻularini kuchaytirishga alohida eʼtibor qaratishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

IMOM BUXORIY – MUHADDISLAR SULTONI

Imom Buxoriy 810-yilning 20-iyulida Buxoroda tavallud topgan. Ismi – Muhammad, kunyasi – Abu Abdulloh boʻlgan. Buxoroda tugʻilgani uchun unga Buxoriy nisbasi berilgan. Hadis ilmi rivojiga qoʻshgan beqiyos hissasi sababli islom olami va muhaddislar orasida “Amirul muʼminiyna fil hadis” (Hadis ilmida moʻminlarning amiri), “Al-Imomul miqdom” (Jasur imom), “Imomul muhaddisiyn” (Muhaddislarning imomi), “Sayyidul fuqaho” (Faqihlar sayyidi), “Imomud dunyo” (“Dunyoning imomi” – dunyodagi barcha musulmonlarning imomi), “Shayxul islom” (“Islomning shayxi” – musulmonlarning ustoz) kabi yuksak unvonlar bilan tilga olinadi.

Imom Buxoriyning otasi Ismoil ibn Ibrohim ham

o‘z davrida Buxoroning taqvodor, hadis ilmida shuhrat qozongan kishilaridan bo‘lib, Payg‘ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning hadislarini to‘plash baxtiga muyassar bo‘lgan. Shu maqsadda bir qancha o‘lkalarga safar qilgan. Muhammad hali go‘dakligidayoq otasi vafot etgan.

Onasi soliha, fozila va ma‘rifatli ayol bo‘lgan. Imom Buxoriy volidasi tarbiyasida o‘sib-ulg‘aygan. Bir kuni o‘g‘lining ko‘ziga shikast yetib, ko‘rmaydigan bo‘lib qoladi. Onasining Alloh taologa tinmay qilgan iltijo va duolari sabab Muhammadning ko‘zlari yana ko‘ra boshlaydi. Shu bois manbalarda onasining ismi zikr qilinmasdan, tarix zarvaraqlariga “Duosi mustajob ayol” nomi bilan muhrlangan.



YOSHLIGI

Imom Buxoriy bolalik vaqtidayoq hadis yodlashga ishtiyoqi baland bo'lgan. U ilm olish yo'lida tinmay harakat qilar edi. Albatta, bu Imom Buxoriyga berilgan ilohiy ilhom edi. Farzandiga berilgan ushbu ilohiy ne'matni onasi o'z vaqtida anglab yetib, uni Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning mu-borak hadislarini o'rganishga yo'naltiradi.

KUCHLI XOTIRA SOHIBI

Imom Buxoriyga Alloh taolo tomonidan o'tkir zakovat va kuchli yod olish qobiliyati ato etilgan bo'lib, bu uning kichiklik chog'idanoq ko'zga tashlana boshlagan edi. O'n bir yoshli bola bo'la turib ustoz Doxiliyning xatolarini tuzatishi bunga yorqin misoldir.

Imom Buxoriyning yozganlarini oqqa ko'chiruvchi Muhammad ibn Abu Hotim aytadi: "Men Buxoriydan o'z qulog'im bilan "Alloh menga hadislarni yodlash ilhomini ato etgan edi", deganini eshitdim va undan: "O'shanda necha yoshda edingiz?" deb so'radim. Ustoz: "O'n yoshda yoki undan ham kichik edim. So'ngra maktabni bitirib, ustoz Doxiliy va boshqalardan hadis bo'yicha saboq ola boshladim.

Bir kuni ustoz dars payti: "Sufyon Abu Zubayrdan hadis rivoyat qilgan, u esa Ibrohimdan", dedilar.

Shunda men: “Abu Zubayr Ibrohimdan rivoyat qilmagan”, degan edim, ustoz menga tanbeh berdilar. Men ustozga: “Qo‘lingizda bo‘lsa, asl manbaga bir qarang”, dedim.

Ustoz ichkari xonaga kirib, qaytib chiqqach: “Ey bola, unda to‘g‘risi qanday bo‘ladi?” deb so‘radilar. Men: “Zubayr ibn Adiy Ibrohimdan hadis rivoyat qilgan”, dedim. Shunda ustoz qalamni olib yozganlarini tuzatib qo‘ydilar-da, menga qarab: “Sen haq ekansan”, dedilar. Shunda kimdir undan: “O‘sha vaqtda necha yoshda edingiz?” deb so‘radi. “Yoshim o‘n birda edi”, deb javob qilgandilar”.

Salim ibn Mujohid aytadi: “Muhammad ibn Salom Poykandiy huzurida edim. U menga: “Sal avvalroq kelganingda yetmish ming hadisni yod biladigan bolakayni ko‘rarding”, dedi. Men ortidan izlab borib, uni topdim va: “Yetmish ming hadisni yoddan bila-



man, degan senmisan?” deb soʻradim. “Ha, undan ham koʻp. Men sahoba va tobeinlardan hadis keltiradigan boʻlsam, aksarining tugʻilgan joylari, vafotlari va maskanlarini ham bilaman”, deb javob berdi u”.

ILMIY FAOLIYATI

Imom Buxoriy dastlabki taʼlimni oʻz Vatani Buxoroda boshlagan. Birinchi ustozlari ota-onasi boʻlgan. Onasi yoshligidan unga oʻqish-yozishni oʻrgatib, Imom Molikning “Muvatto” (Hadislar toʻplami) kitobidagi hadislarini yodlatgan.

Imom Buxoriy butun hayotini Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak hadislarini toʻplashga bagʻishlagan. 9-10 yoshlaridayoq zamonasining ulugʻ olimlaridan hadis tinglashni boshlagan. Oʻzining xotirlashicha, ilm safariga chiqishdan oldin Buxorodagi hadis sohasidagi yetuk olimlar – Muhammad ibn Abdulloh ibn Jaʼfar ibn Yaman Juʼfiy va Muhammad ibn Salom Poykandiy kabi muhaddislardan taʼlim olib, ulardagi ilmni toʻliq oʻzlashtirgan. Ibn Muborak va Vakiʼning kitoblarini yod olgan.

Atrofdagi hadis ilmidan dars bera oladigan olim qolmaganidan keyin oʻn olti yoshida, onasi va akasi Ahmad hamrohligida Makka shahriga ham ilm talabida, ham haj ziyorati maqsadida yoʻl oladi. Onasi va akasi bilan haj ibodatini ado etadi. Haj mavsumi nihoyasiga yetgach, akasi va onasi Vatanga

qaytadi. Muhammad esa ilm olish niyatida Makkayi mukarramada yashab qoladi.

Imom Buxoriy butun hayotini hadis ilmini mukammal darajada o'rganish va jamlashga bag'ishladi. Qayerda bo'lmasin, hamisha bu sharaflı vazifani tark qilmadi. Asarlarini, asarlar uchun jamlangan barcha ma'lumotlarni o'z qo'li bilan yozar, bunday mas'uliyatli ishlarni hech kimga ishonmas edi. Aksariyat asarlarini tunda qog'ozga tushirardi.

Hayoti davomida ilm olish maqsadida qariyb barcha islom mamlakatlariga, ba'zi birlariga esa bir necha bor safar qildi. U yerdagi olimu ulamolarning ilmlaridan bahramand bo'ldi. Abu Abdulloh Hokimning yozishicha, Buxoriy faqat ilm talabida ko'plab mamlakatlarga safar qilgan va u joylarda uzoq



muddat yashab, ustozlaridan saboq olgan. Jumladan: “Men Imom Buxoriy saboq olgan ustozlarning faqat eng taniqlilaridan bir qisminigina keltirdim. Bu bilan uning hadis to‘plamidagi roviylarining naqadar oliy darajada ekanini ko‘rsatishni maqsad qildim”, degan.

Allomaning ilmiy maqsadda bosib o‘tgan bir martalik yo‘li 13 900 kilometrni tashkil qiladi.

USTOZLARI

Imom Buxoriy ilm olish uchun umrining katta qismini safarda o‘tkazgan va ko‘plab ustozlardan ta‘lim olgan. Bu haqda Muhammad ibn Abu Hotim Varroq: “Imom Buxoriy vafotidan sal oldin: “Men bir ming sakson kishidan hadis yozib oldim, hammasi hadis sohibidir”, deganlarini eshitganman”, deydi. Muhaddis bir kishidan bittagina hadis rivoyat qilgan bo‘lsa ham, o‘sha shaxs unga ustoz, muhaddislar ta‘biri bilan aytiladigan bo‘lsa, shayx hisoblanadi.

“Tarixi Bag‘dod” kitobida zikr qilinishicha, Buxoriy: “Men mingdan ko‘p shayxdan hadis yozib olganman”, deb ta‘kidlagan.

Buxorodagi ustozlari – Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Buxoriy, Abdulloh ibn Muhammad Musnadiy, Horun ibn Ash‘as Buxoriy va boshqalar.

SHOGIRDLARI

Imom Buxoriy yoshlik chog'idayoq shogirdlarining sanog'i yo'q edi. Yoshligida Basra aholisining olimlari uning ortidan ergashib yurardi. Hatto yo'lda to'xtatib olib hadis so'rashardi. Manbalarda keltirilishicha, olimning shoh asari bo'lmish "Al-Jomi' as-sahih" (Ishonchli hadislar to'plami)dan uning bevosita rahbarligida to'qson ming kishi ta'lim olgan. Ular safida mashhur muhaddislar – Muslim ibn Hajjoj, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, Ibn Xuzayma, Imom Abu Dovud, Muhammad ibn Yusuf Firabriy, Ibrohim ibn Ma'qal Nasafiy kabi ko'plab ulug' olimlar bor edi.

Ilm majlislarida minglab odam jamlanar edi. Ularning ko'pi ko'zga ko'ringan mashhur olimlar bo'lsa, Imom Buxoriy hali mo'ylovi chiqmagan yosh bola edi.

Imom Buxoriyning shogirdlari islom olamida tanilgan olimlar edi. Ular ko'plab qimmatli asarlari bilan hadis ilmining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan. Imom Buxoriyning shogirdlari eng ishonchli muhaddislar darajasiga yetgan. Jumladan, olti ishonchli hadis to'plamining mualliflari orasidan Imom Muslim, Imom Termiziy, Imom Nasoiy va Imom Abu Dovud kabi buyuk muhaddislar undan tahsil olib, hadis rivoyat qilgan. Imom Buxoriyning darslarida yigirma ming talaba hadis tinglash uchun jamlanar edi.

ILMIY-MA'NAVIY MEROSI

Imom Buxoriy butun umrini Payg'ambarimiz alay-hissalom hadislarini to'plash, bir tizimga solish, ularni sahih (to'g'ri, ishonchli) va g'ayri sahih (xato yoki zaif)ga ajratishga bag'ishlagan. Hadis rivoyat qiluvchilarning hayoti, yashash joylari, tavallud va vafot etgan sanalari, o'zaro muloqotlarini jiddiy o'rgangan. Buyuk muhaddis olti yuz mingga yaqin hadis to'plab, shundan yuz ming "sahih" va ikki yuz ming "g'ayri sahih" hadisni yoddan bilgan. U o'zining bunday noyob qobiliyati va kuchli xotirasi bilan o'z davridagi muhaddislarni hayratga solgan.

Imom Buxoriy yoshlik davridanoq kitob yoza boshlagan. Manbalarda qayd etilishicha, u ilmiy faoliyati mobaynida yigirma to'rtta asar yozgan. Allomaning bebaho ilmiy merosi zamonasining diniy va ijtimoiy fanlarini to'la-to'kis qamrab olgan.

Imom Qastaloniy bunday degan: "Imom Buxoriy asarlari quyosh yetgan joygacha yetib bordi. Dunyoning hamma yerini egalladi. Uning fazlini hech kim inkor qilolmaydi. Asarlarining eng ulug'i "Al-Jomi' as-sahih"dir". Ammo asar "Sahihul Buxoriy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Bunday shuhrat topishiga sabab asarda Qur'oni karim tafsiri, fiqh (islom huquqshunosligi) va boshqa diniy ilmlar borasida sahih hadislar keltirilganidir.

Buyuk muhaddis bobomizning boy va serqirra

ilmiy merosida alohida o'rin tutgan "Sahihul Buxoriy" asari asrlar davomida dolzarbligini yo'qotmadi. Aksincha, yuksak e'tirof etilib, shu kunga qadar muhim asarlardan biri sifatida alohida qadrlanib kelmoqda.

Mazkur asar islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba sifatida e'tirof etiladi. Muallifning bu kitobni yozishiga ko'rgan tushi asosiy turtki bo'lgan. Bu haqda Imom Buxoriy: "Tushimda Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamni ko'rdim. Men u zotning huzurlarida turib, qo'limdagi yelpig'ich bilan Payg'ambarimizni yelpib turgan ekanman. Bu tushning ta'birini ba'zi ta'birchilardan so'raganimda, ular: "Sen Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamni yolg'ondan himoya qilar ekansan", dedilar. Bu tush meni ushbu asarni yozishga undadi", deb aytgan.

Imom Buxoriy o'z asari haqida: "Men ushbu kitobni olti yuz ming hadis ichidan ajratib olib, o'n olti yilda yozib tugatdim va uni o'zim bilan Alloh o'rtasida hujjat qilib qo'ydim", degan.





XULOSA O'RNIDA

Buyuk muhaddis yozgan asarlari bilan hadis ilmi rivojiga katta hissa qo'shdi. Vatandoshimiz Imom Buxoriy nomi va ilmiy merosi qancha qadrlansa, shuncha oz. Yuqorida alloma haqida keltirilgan ma'lumotlar dengizdan bir tomchidir. Allomaning odob-axloqi va go'zal fazilatlari uning hayoti va faoliyatida to'liq namoyon bo'lgan. Biz uchun ahamiyat kasb etadigan yana bir tomoni uning ilm-u ma'rifat yo'lida qanchadan qancha qiyinchilik va mashaqqatlarni sabr-toqat bilan yengganidir. Ilm yo'lida haqiqiy fidoyilik va jasorat namoyon qilgani

barcha musulmonlar uchun, ayniqsa, yoshlarimiz uchun g'oyatda ibratlidir.

Alloma umri davomida ilm yo'lida uzoq yillar olib borgan tinimsiz sa'y-harakatlari va izlanishlari natijasida hadis, tafsir, fiqh va boshqa fanlar rivojiga katta hissa qo'shdi.

Imom Buxoriy qirq yil davomida ilm o'rganish uchun o'zga yurtlarda hayot kechirgan. Mislsiz mashaqqat chekib, har bir hadisni asarga kiritishdan oldin g'usl qilib, ikki rakat namoz o'qib, taqvo va zuhd ila o'n olti yil davomida "Sahihul Buxoriy" asarini tartibga keltirgan. Asarning qadr-qiymati yuksakligining asl siri ham, hech shubhasiz, shu xolis mehnatda bo'lgan.

Vatanimizda bu ulug' zot xotirasi va ilmiy merosi doimiy hurmat va e'tiborda. Imom Buxoriy maqbarasi musulmon dunyosining tabarruk qadamjolaridan biri hisoblanadi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi.

Hadis ilmining sultoni – Imom Buxoriyning hayoti va ilmiy-ma'naviy merosini o'rganar ekanmiz, uning dunyoqarashi, ichki olami g'oyatda ibratli va serqirra jihatlari bilan xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta ahamiyat kasb etishiga amin bo'lamiz.

HADISLARDAN NAMUNALAR:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Amallar faqat niyatlarga ko‘radir. Har kimga niyat qilganigina bo‘ladi”**, dedilar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Hayo imondandir”**, deganlar.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **“Kim otanasiga yaxshilik qilsa, unga Tubo (jannat) bo‘lsin, Alloh azza va jalla uning umrini ziyoda qilsin”**, deganlar.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **“Munofiqlarning alomati uchta: gapirsa, yolg‘on so‘zlaydi; va‘da bersa, xilof qiladi; omonat berilsa, xiyonat qiladi”**, deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Kishi o‘zi yaxshi ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmagunicha komil mo‘min bo‘la olmaydi”**, deganlar.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **“Har bir yaxshilik sadaqadir”**, deganlar.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: **“Bir-biringizga hadya bering, o‘rtangizda muhabbat paydo bo‘ladi”**, deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Hech kimga sabrdan yaxshiroq va ulkanroq ne‘mat berilmagan”**, deganlar.

Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: **“Chaqimchi jannatga kirmaydi”**, deganlar.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: **“Musulmonning musulmon ustidagi haqqi beshtadir:**

- 1. Salomiga alik olish.**
- 2. Kasal bo‘lsa, borib ko‘rish.**
- 3. Janozasiga ergashish.**
- 4. (Taom yoki boshqa biror narsaga) chaqirganda javob qilish.**
- 5. Aksa urganda javob qaytarish”**, deganlar.



Imom Buxoriy maqbarasi



**IMOM BUXORIY
XALQARO ILMIY-
TADQIQOT MARKAZI**

Nashr uchun mas'ul: **Otabek MUHAMMADIYEV**
G'oya mualliflari: **Shahzod ISLOMOV, Shovosil ZIYODOV**

Muharrir: **Anvar BOBOYEV**
Musahhah: **Husan NISHONOV**
Dizayner: **Muhammadiqbol SHUKUROV**

© **IBXITM - 2023**

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning
2021-yil 19-avgustdagi 03-07/5077-raqamli xulosasi asosida tayyorlandi.*

